



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ
И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

СОВМЕСТНЫЙ БЕЛОРУССКО-УЗБЕКСКИЙ МЕЖОТРАСЛЕВОЙ ИНСТИТУТ
ПРИКЛАДНЫХ ТЕХНИЧЕСКИХ КВАЛИФИКАЦИЙ В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА

БЕЛОРУССКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ "SCIENCE AND INNOVATION"

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НОВОГО УРОВНЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ АВТОМАТИЗАЦИИ

III МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ *СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ*



20 НОЯБРЯ 2024 ГОДА

I

GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASI ORQALI TA'LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI

¹Rustamova Shohista Alisher qizi, ²Xasanova Mohichexra Farxod qizi

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, ²Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Google Classroom platformasining ta'lim tizimini raqamlashtirishdagi afzalliklari va imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Xususan, maqolada kurs yaratish jarayoni, ma'ruza materiallarini joylashtirish, mavzu bo'yicha testlar va topshiriqlarni tayyorlash, ularni qabul qilish va baholash funksiyalari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: google Classroom, platforma, mustaqil ta'lim, baholash, test, kompyuter, texnologiya.

Abstract. This article examines the advantages and possibilities of the Google Classroom platform in the digitization of the educational system. In particular, the article provides information about the course creation process, placement of lecture materials, preparation of subject tests and assignments, and their acceptance and evaluation functions.

Keywords: google Classroom, platform, independent education, assessment, test, computer, technology.

Kirish

Ta'limni axborotlashtirish jarayonining jadal rivojlanishi axborot texnologiyalarini qo'llash doirasini kengaytirishga, uning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini o'zgartirishga olib keladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi ta'lim shakllarining rivojlanishi turli xil elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalarining paydo bo'lishiga olib keldi hamda ular ma'ruza konteksida ham, talabalarning mustaqil ishlashi uchun materiallar sifatida ishlatilishi mumkin [8, 2-b].

Mustaqil o'quv faoliyati talabalarning shaxsiy rivojlanishi, o'zini boshqarishi, tanqidiy va analitik fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi, ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlanishi, o'qishga bo'lgan qiziqishining oshishi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining oshishiga yordam beradi.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun Google Classroom platformasining imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin.


Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqola uchun bir qator xalqaro va mahalliy manbalar tahlil qilindi. Manbalar orasida Google Classroomning imkoniyatlari va afzalliklarini ko'rsatib beruvchi bir qator ilmiy maqolalar, tadqiqotlar hamda tajriba natijalari o'rganildi. Shu jumladan, To'rayeva G.H(2020) "Google Classroom platformasida ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar"[1] nomli uslubiy qo'llanmasida Google Classroomdan foydalanish: Googleda akkaunt ochish, o'quv kursini yaratish, kursga ma'lumotlar, topshiriqlar, testlarni joylashtirish, ularni qabul qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar dan foydalanilgan. Manuel Hoffman tomonidan yozilgan "Google Classroom: A Complete Guide" kitobida Google Classroom platformasidan foydalanish bo'yicha ko'plab foydali tavsiyalar o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Google Classroom – bu [Google](#) tomonidan ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan bepul [aralash o'quv](#) platformasi bo'lib, topshiriqlarni yaratish, tarqatish va baholashni


soddalashtirish uchun ishlatiladigan ko‘p qirrali platforma. Google Classroom-ning asosiy maqsadi o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida fayllar almashish jarayonini soddalashtirishdir[2]. Google Classroom ham veb-platforma, ham mobil ilovadir. Bu o‘qituvchilarga topshiriqlarni yaratish, tarqatish va baholash imkonini beradi.

Google Classroom orqali o‘qituvchilar kurslarni osongina yaratishlari mumkin. Har bir kurs uchun maxsus bo‘limlar ochiladi va ular mavzularga bo‘lingan holda o‘quv materiallari, ma’ruzalar va topshiriqlar joylashtiriladi. Kurs yaratish jarayoni oson va tez amalga oshiriladi, bu esa o‘qituvchilarga qulaylik yaratadi. Google Classroomda kurs yaratish uchun dastlab istalgan brauzer orqali(Google Chrome, Internet Explorer, Opera, Yandex, Firefox va hokozolar) akkauntga kirish kerak bo‘ladi. Brauzerning manzil qatoriga classroom.google.com manzilini yoki Google ilovalari bo‘limidan Classroom ikonkasi ustiga bosib, classroom.google.com sahifasiga o‘tiladi(1-rasm).



1-rasm.Google classroom sahifasiga o‘tish.


Ekranida paydo bo‘lgan “Kurs yarating”(Создать курс) oynasida kurs nomi kiritilib, tegishli qatorlar to‘ldiriladi va “Yaratish”(Создать) tugmasi bosiladi(2-rasm).



2-rasm. Kurs yaratish va yaratilgan kurs oynasi.

Har bir kurs uchun avtomatik tarzda maxsus kod ajratiladi, bu kod orqali talabalar keyinchalik o‘zlarining “virtual sinflarini” osonlik bilan topishlari mumkin bo‘ladi. Google Classroom platformasiga kirish imkoniyati Android va IOS qurilmalari uchun mo‘ljallangan mobil ilovalarda ham mavjud[3].

Quyidagi rasmda Google Classroom platformasidagi menyular tasvirlangan. Umumiy qilib aytganda, bu menyular Google Classroom platformasida o‘qitish va o‘rganish jarayonini boshqarish, kuzatish va muhokama qilish uchun asosiy vositalar hisoblanadi.



3-rasm. Google Classroom platformasidagi menyular va topshiriqlar bo'limi ko'rinishi. Mavzu bo'yicha testlar va topshiriqlarni tayyorlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

- Kvestlar (Задания) bo'limiga o'tiladi va yaratish(Создать) tugmasi bosiladi.
- So'ngra **mashq qilish (Задание)** yoki **test topshirig'i (Задание с тестом)** bo'limlaridan biri tanlanadi.
- Topshiriq nomi va ko'rsatmalar kiritiladi. Fayllar qo'shiladi yoki Google Forms orqali test yaratish imkoniyati ham mavjud.
- Oxirida yakunlash (Назначить) tugmasini bosib, topshiriq o'quvchilarga yuboriladi.

O'qituvchi platforma orqali o'quvchilarga turli xil topshiriqlar berishi mumkin. Bu topshiriqlar matnli yoki talabadan maxsus fayl (PDF, Word hujjatlari yoki grafikalar) yaratish va uni yuklashni talab qilishi mumkin.

Topshiriqlarni qabul qilish

O'quvchilar topshiriqlarni tayyorlab, platforma orqali yuklaydilar. Yuklangan har bir topshiriq platformada avtomatik ravishda saqlanadi va o'qituvchi osonlik bilan ko'rishi mumkin bo'ladi. Google Classroom o'qituvchiga qabul qilingan topshiriqlar haqida xabar beradi va har bir talabaning o'z vaqtida topshirgan yoki kechikkanligini kuzatib boradi. Platformaning asosiy afzalliklaridan biri o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv muloqotni yanada oson va samarali qilishdir. Talabalar topshiriqlarni platforma orqali elektron shaklda topshirishlari, o'qituvchilar esa ularni osongina baholab, talabalarga izoh va fikr-mulohazalar berishlari mumkin. Bu jarayon an'anaviy o'qitish usulidan ko'ra tezkor va qulayroq bo'lib, ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, platformada maxsus xabarlar va izohlar bo'limi mavjud bo'lib, o'qituvchi va talaba o'rtasida real vaqtda muloqotni yo'lga qo'yadi. O'qituvchilar savollarga tez javob berishlari, muammolarni zudlik bilan hal qilishlari mumkin, bu esa talabalarining faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Platformaning ushbu imkoniyatlari o'quv jarayonining interaktivligini oshiradi va o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Google Classroom platformasi mamlakatimizda ta'limni raqamlashtirish jarayonini yengillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Platforma yordamida o'qituvchilar dars materiallarini onlayn joylashtirib, topshiriqlarni elektron shaklda qabul qilishlari va baholashlari mumkin. Ammo chekka hududlarda internet tezligi yoki barqarorligi yetarli darajada emas. Bu

platformadan to‘liq foydalanishga to‘siq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, internet imkoniyatlarini kengaytirish va barqaror qilish ta‘limning raqamli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Umuman olganda, Google Classroom platformasi yurtimizda masofaviy va an‘anaviy ta‘limni qo‘llab-quvvatlash, samaradorlikni oshirish va ta‘lim jarayonini interaktiv qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababdan bu platformaning ishlatilishini yanada kengaytirish va ta‘lim muassasalarida undan to‘liq foydalanish uchun infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib borilishi muhim. Google Classroom platformasiga o‘zimizning ta‘lim tizimiga mos keladigan yangi funksiyalarni qo‘shish yoki yangi modullar yaratish muhim kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдрахманова Ж. Е. Методические рекомендации для работы в платформе Google Classroom // Нур-Султан-2019.
2. Чайнокова Г.Р. Персональная образовательная среда преподавателя на платформе google classroom как средство формирования аудитивной компетенции у студентов технического ВУЗа // Cyberleninka.ru – 2019.
3. <https://www.ispring.ru/elearning-insights/platforma-onlain-obucheniya/google-classroom>
4. Андрей С. “**Google Classroom для начинающих**”. 2019.
5. Hoffman, Manuel. “**Google Classroom: A Complete Guide**”. 2020.
6. <https://www.eduneo.ru/google-classroom>
7. Shohista, Rustamova. "TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TOSHKIL ETISHDA GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASIDAN FOYDALANISH." *Fan va innovatsiyalar* 3.Maxsus 50-son (2024): 494-498.
8. Rustamova S. A. TALABALARNING MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MAXSUS TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. CSPU Conference 1. – С. 640-643.

Contenst / Содержание/ Mundarija

1	Султанов К.С., Баходиров А.А., МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПОДЗЕМНОГО ТРУБОПРОВОДА С ГРУНТОМ ПРИ СЕЙСМИЧЕСКИХ ВОЗДЕЙСТВИЯХ	5
2	Черняк Владимир Николаевич, РОЛЬ МЕЖГОСУДАРСТВЕННОГО СОВЕТА ПО СТАНДАРТИЗАЦИИ, МЕТРОЛОГИИ И СЕРТИФИКАЦИИ В РАЗВИТИИ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАЧЕСТВА ЕВРАЗИЙСКОГО РЕГИОНА	22
3	Нестеренков С.Н., Лапицкая Н.В., Мигалевич С.А., ПРОЕКТНЫЙ ПОДХОД В СОВМЕСТНОЙ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ ИТ-ПРОФИЛЯ	33
4	Газиев Г.А., Акбарова Н.А., Саилова М.М., Дустмуродова З., РОЛЬ СТАНДАРТИЗАЦИИ В СИСТЕМЕ ОЦЕНКИ СООТВЕТСТВИЯ	39
5	Недзьведь А.М., Белоцерковский А.М., Лукашевич П.В., ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ВОДНЫХ РЕГИОНОВ ПО МУЛЬТИСПЕКТРАЛЬНЫМ ИЗОБРАЖЕНИЯМ	41
6	Akhmedova S.Kh., USING MATRIX MODELS FOR DIGITAL ECONOMY AND ECOLOGY IN THE DESIGNED ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE STATISTICAL SYSTEM	45
7	Akhmedova A., ASSESSMENT OF TV IMAGE QUALITY IN THE ABSENCE OF HF COEFFICIENTS IN LIFTING WAVELET FILTERS	51
8	Artikova M.A., Ismatova M.F., REVIEW OF APPROACHES AND TECHNOLOGIES OF ADAPTIVE LEARNING SYSTEMS FOR LEARNING ENGLISH	59
9	Eshonqulov Erali Sherali o'g'li, MASOFADAN ZONDLASH QURILMALARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	62
10	Ibraimov Q.G., TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA ETIKA	68
11	Javliyev Sh.A., To'rayev X.Sh., Akbarova M.A., MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH BOSQICHLARIDA TEZKORLIKKA ERISHISH USULLARI	71
12	Jumabaeva Nargiza Odilbekovna, DIGITALIZATION OF EDUCATIONAL PROCESSES	79
13	Muhammadiyeva D.K., Uzoqov L.M., YOLG'ON XABARLARNI ANIQLASHDA SIFATLI DATASETLAR YARATISHNING AHAMIYATI VA TEXNIKALARI	82
14	Nasiba Mukhtorova, Zohid Askarov, THE RISE OF SMART TOURISM AND ITS TRANSFORMATIVE POTENTIAL FOR UZBEKISTAN	89
15	Nortoyeva Durdona Raxmatilla qizi, Beknazarova Saida Safibullayevna, TELEVIDENIYALARDA UZATILAYOTGAN TASVIR SIFATINI AVTOMATLASHTIRISH	96
16	Nurmuhammedov T.R., O.Z.Qoraboshev, FAVQULODDA VAZIYATLARNI ANIQLASHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH	99
17	Puziy A.N., THE EFFECT OF PARTIAL ZEROING OF HIGH-FREQUENCY WAVELET TRANSFORMATION COEFFICIENTS ON TV IMAGE QUALITY	106
18	Radjabov S.S., Mardiyev A.Sh. Dadaxanov M.X., Asrayev M.A., TASVIR SIFATINI ETALONSI BAHOSIGA ASOSLANGAN QO'LYOZMA MATNI TASVIRLARI SIFATINI OSHIRISHNING SAMARALI ALGORITMINI TANLASH YONDASHUVI	113
19	Rakhimov N.O., Khasanov D.R., Abdulkhkimov H.N., APPLICATION OF MACHINE LEARNING ALGORITHMS TO FORECAST THE YIELD OF GRAIN CROPS	117
20	Rustamova Shohista Alisher qizi, Xasanova Mohichexra Farxod qizi, GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASI ORQALI TA'LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI	120
21	Saidov A.D., A'zamov T.N., Berdanov U.A., Tojiyev S.A., ANALYSIS OF ALGORITHMS FOR PREDICTING THE PROBABILITY OF FATAL OUTCOME IN PATIENTS AFTER MYOCARDIAL INFARCTION	124
22	Saydazimov J.K., IMAGE PROCESSING METHODS AND AI ALGORITHMS: AN IN-DEPTH ANALYSIS	128
23	Shukurov K.E., Xasanov U.K., Javliyev Sh.A., NUTQ SIGNALLARINI XUSUSIYATLARINI AJRATIB OLIHDA PARALLEL QAYTA ISHLASHNING AHAMIYATI	133
24	Sobirov O.O., Shermetov B.I., Ko'palova Sh.O., EXCHANGE UZBEK LANGUAGE TEXTS IN LATIN, CYRILLIC AND NEW LATIN ALPHABET (TRANSLITERATION)	139
25	Usmanbayev D.Sh., KIBERXAVFSIZLIK ASOSLARI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING TAHLILI	144
26	Yusupov O.R., Eshonqulov E.Sh., Abduraxmonov M.S., MULTISPEKTR TASVIRLARDA PANSARPENING USULLARI UCHUN LANSOSH INTERPOLYATSIYANI QO'LLASH	147
27	Байжанова Н.А., Бафоев Абдуллажон, ВОЗМОЖНОСТИ И ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА РАЗНЫХ ОБЛАСТЯХ ЖИЗНИ	150
28	Бекназарова С.С., Халикова Н.Ю., ГЕОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ФУНКЦИИ ПОЧЕК В БИОМЕДИЦИНСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	155
29	Бекназарова Саида Сафибуллаевна, Сафарова Зилола Олимжоновна, РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ И АЛГОРИТМОВ АНАЛИЗА И СИНТЕЗА РЕАЛИСТИЧНЫХ ВЫРАЖЕНИЙ ЛИЦА ПЕРСОНАЖЕЙ	160
30	Бекназарова Саида Сайфудиновна, Халикова Насиба Юнусовна, МОДЕЛИРОВАНИЕ ДЕФОРМАЦИИ ПАРЕНХИМЫ ПОЧКИ В ЗОНЕ РЕЗЕКЦИИ ПРИ НАЛОЖЕНИИ ГЕМОСТАТИЧЕСКИХ ШВОВ	165
31	Джалилова Сокинахон, МОДЕЛИ И ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБСЛУЖИВАНИЯ В CDN	170
32	Ибрагимов Н.М., Шарипов Х.Д., ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ СПОСОБСТВУЕТ РАЗВИТИЮ НАВЫКОВ РЕШЕНИЯ РЕАЛЬНЫХ ЗАДАЧ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	174
33	Кодиралиев А., Абдукодилов Ж.А., ПРИМЕНЕНИЯ ПРОГРАММНОГО СРЕДСТВА МОДЕЛИРОВАНИЯ МАШИН И МЕХАНИЗМОВ MSC.ADAMS	178
34	Нурматова С.Б., ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ТРАНСФОРМАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА	181